

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI "BOSH" SO'ZI ISHTIROKIDAGI SOMATIK IBORALARING QIYOSIY TAHLILI

Bazarbayeva Shahnoza Isabayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi "bosh" so'zi ishtirokidagi somatik frazeologizmlar va ularning qiyosiy tahlili ko'rib chiqilgan. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili bir qancha misollar bilan tahlilga tortilgan. Nazariy ma'lumotlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: somatizm, ibora, frazeologizm, frazeologiya, frazeologik birlik.

Bugungi kun tilshunosligida tillarning o'zaro munosabat va aloqalarini, shu jumladan, frazeologizmlarning boshqa tillarda mavjud bo'lgan ekvivalentlarini qiyoslashda zamonaviy metodologik tamoyillardan foydalanish zamonaviy tilshunoslik talabi hisoblanadi. Shuningdek, frazeosemantik maydonlarda ishlatiladigan metaforik hamda somatik iboralarni lingvokulturologik jihatdan chuqur tahlil qilish, ularda milliy va madaniy elementlarning aks ettirilishi, o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy analiz qilish ham zamonaviy tilshunoslikning muhim masalasi bo'lib bormoqda.

Har bir tilning frazeologizmi o'sha xalqning o'ziga xos urf-odatlari, milliy qadriyatlarini dunyoqarashi hamda tadrijiy rivojlanish tarixini aks ettiradi. V.A.Maslovaning fikriga ko'ra, "tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi mujassamlashgan".

Frazeologiyaning somatik frazeologizmlar deb ataladigan maxsus qatlami borki, ularning tarkibi inson tanasidagi u yoki bu qismini bildiruvchi so'zlarni o'z ichiga oladi. "Somatizm" atamasi ham yunoncha "soma" so'zidan olingan bo'lib, "tana" degan ma'noni anglatadi. Somatizm yoki somatik komponentli frazeologik birlik deganda insonning tana a'zolari, imo-ishoralari, mimika va yuz ifodalariga tegishli bo'lgan birliklar tushuniladi. Tilshunos olim X.Hamidov somatik iboralar haqida shunday fikr bildirgan: "Inson hayoti bilan bog'liq frazeologizmlarni shakllantirgan

asoslardan birinchisi insonning tana a'zolari nomlari – somatizmlardir. Bunday iboralar somatizmlar vositasida yuzaga kelgan bo'lib, turg'unlshgan holda insonning idroki, tafakkuri, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, jamiyat bilan munosabati, xulq-atvori, tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Ular ma'no jihatdan emas, balki, tuzilishi, obrazliligi bilan ham bir-biriga mos va yagona ichki shakl asosida yuzaga kelgan”[1]. Tilshunoslikda “somatik” atamasi F.Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, jahon tilshunoslaridan S.G.Alekseyeva, R.M.Vayntraub, R.Y.Mugu, E.V.Nikdina, O.A.Kononova, V.P.Shubina, M.N.Azimova, T.N.Chayko, T.N.Fedulenkova somatik frazeologizmlarga oid asarlar yozishgan. O'zbek tilshunosligida Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A.Isayev, Sh.Abdullayev, Sh.Usmanov somatik frazeologik birliklar ustida o'rghanish olib borishgan. Ushbu maqolamizning asosiylar maqsadi o'zbek va qoraqalpoq tillarida “bosh” komponentli somatik frazeologizmlarni misollar orqali qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir. Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, o'zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham “bosh” komponentli frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular turlicha ma'no-munosabatlarni ifodalaydi. Ularning orasida bir qancha o'xshash birlklarni ham aniqladikki, ular ham leksikologik, ham semantik jihatdan aynan bir-biriga ekvivalent bo'la oladi.

Qiyoslanayotgan har ikki tilda bosh leksemali somatik frazeologizmlar mahsuldor hisoblanadi. Bosh odamning muhim tana a'zolaridan biri bo'lib, hayot ramzi hisoblanadi. “Bosh” komponentli frazeologizmlar ko'pincha insonning aqliy qobiliyatining yaxshi yoki yomonligiga baho beradi.

“Bosh” so'zi umumturkiy so'z bo'lib, unga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha ta'rif berilgan: “Tananing bo'yindan yuqori, oldingi qismi, kalla”[2]. Shuningdek, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “bosh” so'zi bilan bog'liq bir nechta somatik iboralar keltirilgan: *boshga tushmoq, boshida bor, bosh og'ritmoq, boshiga yog'ilmoq, boshdan kechirmoq, boshiga kelmoq, bir yostiqqa bosh qo'ymoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, biror ishning boshini ushlarimoq, boshga qo'ymoq, boshga ko'tarmoq, boshga qo'ndirmoq, boschi bog'liq, boschi buzuq, boshiga yetmoq, boshiga*

suv quymoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib olmoq, boshiga o'tqizib qo'ymoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshida kaltak sinmoq, boshidan zar quymoq, boshidan qolmoq, boshi yostiqqa tegmoq, boshi ketmoq, boshi ko'kka yetmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshini aylantirmoq, boshini bog'lamoq, boshini bukmoq, boshini yemoq, boshiga yetmoq, boshini ikki qilmoq, boshini silamoq, boshini tiqmoq, boshini xam qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq, boshi chiqmaslik, boshi qorong'u, bosh qotirmoq, bosh ko'tarib yurmoq, bosh ko'tarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqn tomonga ketmoq, bosh egmoq, bosh qashimoq, bosh qo'shmoq, bosh urmoq kabi iboralar shular jumlasidandir.

Somatik frazeologizmlar orasida “bosh” komponentli frazemalar miqdor jihatidan “ko‘z” komponentli iboralardan keyingi o‘rinda turadi. Tadqiqotimiz davomida o‘zbek tilida “bosh” komponentli frazemalar variantlari bilan hisoblaganda 160 ta, variantlarsiz 75 ta ekanligi aniqlandi. Albatta, bu raqamlar nisbiy bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ular ko‘payishi mumkin. Qoraqalpoq tilida ham bu shakldagi iboralar yetakchilik kasb etadi. Izlanishlar davomida qoraqalpoq tilida uchrovchi “bosh” komponentli 85 ta frazeologizm tahlilga tortildi. Ikki til doirasida “bosh” komponentli frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish uchun ularning tematik maydonlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzu, mazmun doirasini aniqlashtirib olish orqali iboralarni solishtirish va ularning muqobilligi xususida muayyan bir xulosaga kelish mumkin. Dastlab o‘zbek tilida uchrovchi “bosh” komponentli frazeologizmlarni tematik maydonlarga ajratib chiqaylik:

1.Tiriklik va o‘lim ma’nolarini ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *boshiga yetmoq, boshini yemoq, boshiga balo bo'lmoq, boshini ko'tarmoq (tuzalish va unib chiqish);*

2.Mental qobiliyatni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *boshiga kelmoq, boshidan o'tmoq, boshi ishlarimoq, bosh qotirmoq, boshi shishmoq, boshi g'ovlab ketmoq;*

3.Oila va nikoh munosabatlarini ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *boshini ikkita qlmoq, bir yostiqqa bosh qo ‘ymoq, bosh qovushtirmoq, bosh biriktirmoq, bosh qo ‘shmoq, boshini bog ‘lamoq, boshi ochiq, bosh egali bo ‘lmoq;*

4.Ruhiy va emotsiyal holatni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *boshi ko ‘kka yetmoq, boshini quyi egmoq, boshini xam qilmoq, boshini egmoq, boshini aylantirmoq, boshi bilan sho ‘ng ‘ib ketmoq, boshi bian kirib ketmoq, boshini bukmoq;*

5.Jismoniy holat va harakatni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *bosh ko ‘tarmoq (qo ‘zg ‘almoq, harakatga kelmoq), boshi chiqmaslik, boshini suqmoq, bosh tiqmoq, bosh olib ketmoq, boshidan soqit qilmoq, boshida tosh (yong ‘oq, danak) chaqmoq, boshi aylanmoq;*

6.Miqdorni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *boshdan oshib ketmoq, boshdan ortib yotmoq, boshdan oshib-toshib yotmoq.*

Milliy qarashlarga ko‘ra, inson to‘rt muchasining asosi bosh, bosh omonligi tan salomatligidan dalolat bergen. Olqish hamda qarg’ishlarning aksariyatida ham “bosh” bilan bog’liq o‘rinlar ko‘p uchraydi. “Boshing omon bo‘lsin!”, “Boshingdan balo arisin！”, “Boshing toshdan bo‘lsin!” kabi olqishlarda ham sinekdoxa asosida butun mucha mazmuni “bosh” somasi bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin. Bu kabi o‘rinlarda bosh omonligi tiriklik, hayot, jon ma’nolarini akslantirgan. Yuqoridagi nikohlash marosimi bilan bog’liq o‘rinda ham “bosh” tirik jon, ruhiyat, vujud ma’nolarini ifodalab, fikr, tushunchani yangi shaklda yetkazib berishga xizmat qilgan. Qoraqalpoq tilida “bosh” komponentli iboralar ham o‘zbek tilidagi kabi bir necha ma’nolarda qo‘llanib keladi[3]. Ular quyidagilar:

1. Tiriklik va o‘lim ma’nolarini ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *bas aliw, basina jetiw, basin jutiw, qara basin jutiw;*

2. Mental qobiliyatni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *bas aylandiriw, basin qatiriw, basin awirtiw, basin qasiw;*

3. Shaxsning emotsiyal holatini va jismoniy holatini ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar:

a) Ijobiy ma'noda ishlatiladigan: *bas boliw, basının' g'amin etiw, basına baxit qoniw, basına quis qoniw, basın alip qashiw*;

b) Salbiy ma'noda ishlatiladigan: *a'lemdi basına ko'teriw, uydi basına ko'teriw, jaydı basına ko'teriw, bas ko'teriw, bas iyiw, basqa tu'siw, basına ku'n tuwmaw, bası men'-zen' boliw, basına is tu'siw, basın alip ketiw, basınan da'wrani tayıw, basın to'men aliw, bası pispew, otinin' basın bilg'aw, qara basına boliw*;

4. Insonlarga xos xarakterni, xususiyatni ifodalovchi “bosh” komponentli frazeologizmlar: *qabaq bas, maw bas, quw bas, noqtasin basına tu'rgen*.

Ikki til doirasida “bosh” komponenti ishtirok etgan muqobil iboralar ko‘p. Semantik doiralardagi o‘xshashliklar ularning mazmuniy muqobilligiga sabab bo‘lgan. Qoraqalpoq tilida “bosh” so‘zi asosan salbiy ma'nodagi ishlatiladigan shaxs jismoniy va emotsiyal jolatini aks ettirib kelgan. Umumiylis obida qoraqalpoq tilida uchrovchi “bosh” komponenti ishtirok etgan iboralarning 50% i shaxsning emotsiyal va jismoniy holatlarini akslantirgan. O‘zbek tilida esa bu tarkibli iboralar semantikasida madaniy sema ustunroq, xususan, tug'ilish va o‘lim, oila va nikoh munosabatlari kabi aksiolingvistik xarakterdagi iboralar yetakchilik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. – Toshkent: Bayoz, 2019.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. – T.: O‘qituvchi, 1978.
3. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинин қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985.